

KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI: RIVOJLANISH OMILLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Gafurova Dilobar Karamatovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti 3-bosqich talabasi

Obloqulova Marjona Ne'mat qizi

Annotatsiya: ushbu tezisdagi kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rni, ularning faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, iqtisodiy mexanizmlar va zamonaviy boshqaruv yondashuvlari tahlil etiladi. Hamda kichik biznesning hududiy iqtisodiyot uchun ahamiyati, bandlikni oshirishdagi roli hamda innovatsion faoliyatni jadallashtirishdagi salohiyati ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, tezis yakunida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik, tadbirkorlik subyektlari, iqtisodiy rivojlanish, bandlike, bozor mexanizmi, innovatsion yondashuv, boshqaruv, raqobatbardoshlik.

Аннотация: В диссертационной работе анализируется роль субъектов малого предпринимательства в экономике, факторы, влияющие на развитие их деятельности, экономические механизмы и современные подходы к управлению. Также научно рассматривается значение малого предпринимательства для экономики региона, его роль в повышении занятости и потенциал ускорения инновационной активности. В заключение



диссертационной работы сформулированы предложения по дальнейшему совершенствованию деятельности субъектов малого предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, субъекты предпринимательства, экономическое развитие, групповой характер, рыночный механизм, инновационный подход, управление, конкурентоспособность.

Abstract: This dissertation analyzes the role of small businesses in the economy, the factors influencing their development, economic mechanisms, and modern approaches to management. It also examines the importance of small businesses for the regional economy, their role in increasing employment, and their potential for accelerating innovation. The dissertation concludes with proposals for further improving the performance of small businesses.

Keywords: small business, business entities, economic development, group nature, market mechanism, innovative approach, management, competitiveness.

Hozirgi globallashuv jarayonida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy tizimdagi faol ishtirokiga bog'liqdir. Kichik biznes iqtisodiy faollikni oshiradi, Tovar va xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va aholining turmush darajasini yaxshilashga sezilarli hissa qo'shadi. Shu bois ko'plab mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari- mazmun jihatdan mustaqil xo'jalik yurituvchi, kichik miqyosdagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy tashkilotlardir. Ular odatda kam sonli xodimlarga ega bo'lib, operativ boshqaruvning moslashuvchanligi, qaror qabul qilish tezligi va innovatsiyalarni joriy qilishdagi qulayligi bilan ajralib turadi. Kichik biznesning



iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati bir nechta asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- Bandlikni ta'minlashda
- Bozor iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni kuchaytirishda
- Innovatsion rivojlanishda
- Hududiy iqtisodiyotning rivojlanishida

Kichik tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

1. Normativ-huquqiy muhit

Kichik biznesning samarali faoliyat yuritishi uchun qulay huquqiy muhit yaratish muhim hisoblanadi. Soliq imtiyozlari, yengillashtirilgan ro'yxatdan o'tish tartibi, tekshiruvlarning qisqartirilishi tadbirkorlikni rag'batlantiradi.

2. Moliyaviy ko'mak va kredit resurslari

Bunda kichik korxonalar uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'lar, kreditlar, grantlar va subsidiyalarning mavjudligi ularning rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Moliyaviy infratuzilmaning kengayishi kichik biznes faolligini oshiradi.

3. Raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar

Bu omilda zamonaviy IT yechimlari tadbirkorlikni ancha soddalashtirmoqda. Elektron savdo, onlayn marketing, avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari kichik biznesning bozorga kirib boorish imkoniyatlarini kengaytiradi.

4. Kadrlar salohiyati

Malakali kadrlar mavjud bo'lishi kichik tadbirkorlikning barqaror o'sishini ta'minlaydi. Ta'lim dasturlari, treninglar va malaka oshirish kurslari muhim rol o'ynaydi.

5. Infratuzilma





Bunda logistika, transport, axborot tarmoqlari, ishlab chiqarish maydonlari va texnoparklarning mavjudligi kichik biznesning samaradorligini oshiradi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari

1. Lean-menejment

Isrofgarchilikni kamaytirish, jarayonlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish kichik korxonalar uchun juda muhim. Lean yondashuvi xarajatlarni kamaytiradi va mahsulot sifatini oshiradi.

2. Agil boshqaruv

Agil tizimi biznes uchun eng mos boshqaruv shakllaridan biri bo'lib, qarorlarni tez qabul qilishni, moslashuvchan rejalashtirishni va mijozlarga tezkor javob qaytarishni ta'minlaydi.

3. Brending va marketing strategiyalari

Kichik korxonalar bozorda o'z o'rnini topishi uchun to'g'ri marketing strategiyasini tanlashi zarur. Raqamli marketing, SMM, content marketing, mijozlar bilan aloqa tizimlari (CRM) muvaffaqiyat kalitidir.

4. Innovatsion mahsulot yaratish

Mahsulot yoki xizmatni yangilash, mijozlarga qo'shimcha qiymat taklif qilish va bozorni chuqur o'rganish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshiradi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi va zamonaviy yondashishi uchun taklif va xulosalar



- Kichik tadbirkorlar uchun “Mahallabay biznes mentorligi” tizimini joriy etish.

Har bir mahallada tajribali biznes egalari mentor sifatida biriktiriladi. Kichik tadbirkor 6 oy davomida bepul konsultatsiya, boshqaruv bo'yicha ko'mak va amaliy maslahatlar oladi. Bu usul bank kreditlaridan ko'ra ko'proq real samaradorlik beradi.

- “Raqamli kichik biznes indeksi” (RKBI) yaratish.

Har bir kichik tadbirkorning raqamli faoliyat darajasini baholovchi reyting tizimi joriy etiladi va indeks 5 ko'rsatkich bo'yicha aniqlanadi:

- 1) Onlayn savdo faolligi
- 2) Electron to'lovlar ulushi
- 3) Raqamli reklama faolligi
- 4) Yagona CRM (mijozlar bazasi) yuritilishi
- 5) Elektron hisobotlar tezligi

Reyting yuqori bo'lgan tadbirkorlar imtiyozli kredit oladi.

- Kichik tadbirkorlik uchun “Mini-inkubatsiya markazlari” tashkil etish.

- Soliq yukini “Bosqichma -bosqich yengillashtirish modeli”.

- “Kichik biznes logistika chizmasi” ni ishlab chiqish.

- Kichik eksportchilar klasterini tashkil etish.

Kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Ular bandlikni oshiradi, innovatsiyalarni joriy qiladi, raqobatni kuchaytiradi va hududiy iqtisodiyotni rivojlantiradi. Kichik biznesning yanada rivojlanishi uchun qulay huquqiy muhit yaratish, moliyaviy ko'mak tizimini kengaytirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va malakali kadrlar tayyorlash zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 O'zbekiston Respublikasining Prezidentining kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga doir farmonlari va qarorlari.
- 2 Karimov N. "Tadbirkorlik asoslari". – Toshkent Iqtisodiyot nashriyoti.
- 3 Xolmirzayev Sh. "Bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik". – Toshkent.
- 4 Porter M. "Raqobat ustunligi : strategiya va boshqaruv".
- 5 Kotler F. "Marketing asoslari".
- 6 Mahalliy va xorijiy iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.

